

O‘RTA OSIYODA SHAKLLANGAN DINIY – FALSAFIY TA’LIMOTLAR**Davronov Ziyot Davronovich.***F.f.d., professor.***Salimov Baxriddin Lutfullaevich.***TDTr.U dotsenti.***Fayziev Zarfullo Sobir o‘g‘li.***TDTr.U talabasi.*

Annotatsiya: *O‘rta Osiyoga tarqalagan buddizm dini davri ham muhim ahamiyatga egadir. Buddizmning qadimiy dinlardan bo‘lib, aslida diniy-falsafiy ta’limotdir. Zardushtiylikdan keyin yangi yo‘nalish-moniychilik paydo bo‘ldiki, bu ta’limot g‘oyasida olamda nur dunyosi yaxshilik, yovuzlik dunyosi esa zulmatdir, deb ko‘rsatiladi. Ta’limotlardan yana biri Mazdak ta’limotidir. Mazdak qarashlarida xalqning uzoq tarixi mujassamlashgandir. Afsonalar orqali insonlar yuksak ma’naviyatlilikka chaqirilgan. Masalan, “To‘maris” afsonasi.*

Kalit so‘zlar: *Buddizm, moniychilik, Mazdak ta’limoti, afsonalar, “To‘maris” afsonasi.*

Abstract: *The period of Buddhism spread to Central Asia is also important. Buddhism is one of the ancient religions and is actually a religious-philosophical teaching. After Zoroastrianism, a new direction-monism appeared, in the idea of this doctrine, it is shown that the world of light is good, and the world of evil is darkness. Another one of the doctrines is the Mazdak doctrine. The long history of the nation is embodied in Mazdak's views. Through legends, people were called to high spirituality. For example, the legend of "Tomaris".*

Key words: *Buddhism, Monism, Mazdak doctrine, legends, "Tomaris" legend.*

O‘rta Osiyoga tarqalagan buddizm dini davri ham muhim ahamiyatga egadir. Buddizmning o‘zi qadimiy dinlardan bo‘lib, aslida diniy-falsafiy ta’limotdir. Dunyodagi 3 ta yirik dinlar qatoriga kiradi (buddizm, xristianlik, islom). Unga, qadimgi Hindistonda eramizgacha bo‘lgan davrning VI- V asrlarda shahzoda Siddxartxa Gautama tomonidan asos solingan. Keyinchalik u budda, deb atala boshlangan. Budda dini paydo bo‘lishining birinchi asridayoq 18 ta sektalarga bo‘linib ketgan. Bu din Braxmanizm va induizm dinlariga qarshi chiqish natijasida takomillashib borgan. Eramizdan oldingi I ming yillikning III asrlaridan boshlab Janubiy-Sharqiy hamda O‘rta Osiyo, Sibir mamlakatlarida keng tarqalgan. Buddizm ta’limotining markazida inson borlig‘i yotadi. Insonning

qayg‘urishi, qayg‘urishning sabablari, qayg‘urishdan xolos bo‘lish, qayg‘urishdan ozod bo‘lishning yo‘li ushbu dinning mohiyatini tashkil etadi. Bu jarayonlar inson borlig‘idan kelib chiqadi. Buddizm ta‘limoti insonlarga zarar keltiradigan sohalarni qoralaydi. Uning ba‘zi sektalari insonni ruhiy, ruhiy-jismoniy holatlarini o‘zgartirishga chaqiradi. Bu din mohiyatiga ko‘ra inson hayot lazzatlariga berilmasligi lozim. Bu din inson borlig‘ini ulug‘lashga harakat qiladi. Ruhiy faollikka intilgan odam o‘z maqsadlariga erishadi. Buddizm tashqi diniy holatlarni inkor etadi. Bunday qarashlar O‘rta Osiyo xalqlari madaniyati va falsafiy qarashlariga ta‘sir etmay qolmagan. XX asrning oxirgi o‘n yilliklarida Surxondaryo viloyati hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar tasdiqlaydiki, bu joylarda ham buddizm asosida toat-ibodat qilganlar. Topilgan qadimiy haykalchalar shulardan dalolatdir.

O‘rta Osiyoda paydo bo‘lgan ta‘lomotlardan biri bu Moniychilik ta‘limotidir.

Zardushtiylikdan keyin yangi yo‘nalish-moniychilik paydo bo‘ldiki, bu ta‘limot g‘oyasida olamda nur dunyosi yaxshilik, yovuzlik dunyosi esa zulmatdir, deb ko‘rsatiladi. Shular o‘rtasida doimiy kurash bo‘ladi. Unda ham yuksak ma‘naviyatlilik o‘rtaga qo‘yilgan, unga erishish yo‘llari aks ettirilgan. Moniylikning ustuvorligi shundaki, unda inson faoliyatiga ko‘proq diqqat e‘tibor qaratilgan. Sababi, zulmatni yengishda inson o‘z faoliyati, xulqi va butun hayoti bilan kurashadi va natijada yaxshilikning g‘alabasi bilan hayot yakunlanadi. Bu ta‘limotning asoschisi Moniy taxminan eramizning 216-217 yillarida Botlda tug‘ilib, 276 yilda Junda Shopur shahrida vafot etgan, ya‘ni qatl etilgan. U bilimdon kishi sifatida tanilgan. Ma‘lumotlarga qaraganda u bir qancha asarlar yozgan. Uning asarlari ko‘pchilik qismi diniy va ahloqiy mavzularga bag‘ishlangan. Asarlar fors va oromiy tillarida yozilgan, bu asarlar bizgacha yetib kelgan.

Ta‘limotlardan yana biri Mazdak ta‘limotidir. U eramizning V asrning oxiri VI asrning boshlarida O‘rta Osiyo va Eronda kuchayib borgan zulmga qarshi kurash natijasida paydo bo‘lgan degan fikrlar mavjud. Mazdakning o‘zi xalq qo‘zg‘oloniga boshchilik qiladi. Qo‘zg‘olon bostirilib, Mazdak dinsizlikda ayblanadi.

Mazdak qarashlarida xalqning uzoq tarixi mujassamlashgandir. Bu ta‘limotdagi mafkurada dehqonlarni qaram bo‘lib yashashiga qarshi chiqilgan. Unda zardushtiylikning ko‘pgina qirralari o‘z aksini topgan edi. To‘g‘ri, unda ijtimoiy masalalar ko‘proq o‘rin olib, din va falsafaga e‘tibor kamroq qaratilgan. Yovuzlik bu - boylik va kambag‘allikdir. Bular barcha ziddiyatlarning manbaidir. Ijtimoiy kelishmovchiliklarning oldini olish uchun kurash yo‘lida insoniy fazilatlarni shakllantirish bu-xudoga toat-ibodat qilishdir. Ko‘rinib turibdiki, mazdakchilikda ijtimoiy kelishmovchiliklarga qarshi kurash asosiy maqsad sifatida talqin qilinadi va unga diniy xarakter beriladi.

Mazdakchilarning haqiqiy harakati mulkiy tenglikni o‘rnatish bo‘lgan. Ya’ni moddiy boyliklarga birlikda egalik qilishdir. Boyliklarning teng bo‘linishi, undan barcha kishilarning manfaatdor bo‘lishi, mazdakizmga muhim o‘rinni egallaydi. Mazdakchilikning ijobiy tomonlaridan yana biri shuki, unda sust-diniy, ahloqiy ta’limotdan, kuchli g‘oyaviy ta’limotga o‘tishni targ‘ib qilishdir. Bunday qarash O‘rta Osiyo mamlakatlarida keyingi ijtimoiy-falsafiy fikrlarning yanada taraqqiy etishga sabab bo‘ldi.

Qadim davrlardayoq ovchilik, baliqchilik, keyinroq dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik ancha rivojlangan. Iqlim sharoitidan kelib chiqib, dastlab tabiiy toshqin va yomg‘ir suvlaridan foydalanilgan bo‘lsa, keyinroq dehqonchilikda sun‘iy sug‘orishga o‘tilgan. Natijada ishchi kuchi faoliyati ham o‘zgargan. Bunday o‘zgarishlarning bo‘lganligini O‘rta Osiyodagi turli joylarda olib borilgan arxeologik izlanishlar va dostonlar, afsonalar tasdiqlaydi.

Afsonalar orqali insonlar yuksak ma’naviyatlilikka chaqirilgan. Masalan, "To‘maris" afsonasini oladigan bo‘lsak, unda qahramonlik xislatlari o‘z aksini topgan. Chet el bosqinchilariga qarshi vatanparvarlik his-tuyg‘ulari, vatanparvar insonlarning obrazlari berilgan. To‘maris massaget qabilalarining rahbari, hukmdor ayoldir. U o‘z faoliyatini mamlakat tinchligiga, barqarorligiga bag‘ishlaydi. Xalqparvar inson sifatida maydonga chiqadi. Ammo, ahmoniylar hukmdori Kir massaget qabilalarining barqaror turmush tarziga xavf tug‘dirib, avvalo To‘marisga uylanish sharti bilan, massagetlarni o‘ziga bo‘ysundirmoqchi bo‘ladi. To‘maris buni sezib qoladi va taklifni rad etadi. So‘ng podsho Kir urush bilan o‘z niyatini amalga oshirishga intiladi. To‘maris urushning oldini olishga qanchalik harakat qilmasin, harakati zoe ketadi va mudofaaga shaylanadi. U o‘z dushmaniga shunday deydi: "Biz bilamizki, sen tinchlikni xohlamaysan, shu sababli basharti maslahatimizga ko‘nmay, massagetlar bilan to‘qnashishni istasang, ko‘prik yasayman deb ovora bo‘lib o‘tirma. Bizga aytsang, biz senga xalaqit bermay, daryodan uch kunlik yo‘lga ko‘chib ketamiz, bemalol daryodan o‘tasan, undan so‘ng yuzma-yuz urushamiz. Bordi-yu, agar biz bilan daryoning sen turgan qirg‘og‘ida urushmoqchi bo‘lsang, uni ayt, bunga ham biz rozi, faqat nomardlik qilma".

To‘maris mardlarcha kurashga shaylanganligini ko‘rgan podshoh Kir hiyla-nayrang yo‘liga o‘tadi. To‘marisning o‘g‘li Sparganizni va massagetlarning bir qanchasini mast qilib, qo‘lga oladi. To‘maris g‘azablangan holda podshohga qarata: "Ey, qonxo‘r Kir, qilgan ishing bilan maqtanmay qo‘yaqol. Sen mening o‘g‘limni yuzma-yuz jangda yengganing yo‘q, uni makkorlik bilan sharob ichirib qo‘lga tushirding. Endi mening nasihatimga Kir, o‘g‘limni menga topshirib, kelgan yeringga ziyon-zahmatsiz qaytib ket. Agar so‘zimga kirmasang, massagetlar tangrisi-quyosh nomi bilan qasamyod qilamanki, men senday ochko‘z xonni qon bilan sug‘oraman". Kir bu so‘zlarni e’tiborga olmaydi,

natijada jangda yengiladi va halok bo‘ladi. To‘maris Kirning boshini qon bilan to‘ldirilgan meshga solar ekan, jangga yakun yasab shunday deydi: "Ey nomard, sen meni-jangda seni halollik bilan yengib chiqqan bir ayolni makkorlik bilan o‘g‘lidan judo qilib, farzand dog‘ida kuydirding, sen umring bo‘yi qonga to‘ymading, men o‘z ontimga amal qilib seni qon bilan sug‘ordim. Birovning yurtiga zo‘ravonlik bilan bostirib kirganlarning jazosi shu. Ko‘rib turibmizki, bu yuksak falsafiylikning namunasi edi.

REFERENCES:

1. Зиёд Давронов (2022). БИОЭТИКАНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ ҲАҚИДА. Academic research in educational sciences, TSDI and TMA Conference (1), 82-84.
2. Давронов, З. Д. (1990). Возможность и действительность. Фан.
3. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов. (2022) САНОАТ, ФАН-ТЕХНИКА ТАРАҚҚИЁТИНИНГ ТАБИАТ, ЖАМИЯТ ВА ИНСОНИЯТ ҲАЁТИ БИЛАН ДИАЛЕКТИК АЛОҚАДОРЛИГИ. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 11, 351-358.
4. Бахриддин Лутфуллаевич Салимов. (2022) ЖАМИЯТНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ТАКОМИЛЛАШУВИДА БОШҚАРУВ ВА ТАРБИЯ САНЪАТИНИНГ ЎРНИ. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3, Issue 11, 359-365.
5. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Ижтимоий муносабатларнинг шаклланиши ва барқарорлигини белгиловчи муҳим тамойиллар. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.
6. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. Бирдамлик ва ҳамжихатлик – ижтимоий муносабатларнинг келажагидир. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(3), March, 2023.